

## **YERLARNI TAQSIMLASH VA QAYTA TAQSIMLASH-IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOSH OMILLARIDAN BIRI**

Yerkinova M.L. – TIQXMMI magistranti

### **Annotatsiya**

Maqolada respublika iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini rivojlantirish uchun yer fondini taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq masalalarning nihoyatda dolzarbligi, ayniqsa hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlari uchun yerlarni oqilona taqsimlashda ahamiyat qaratilishi kyerak bo'lgan muammolar va ularning echimiga doir tavsiyalar ishlab chiqish mezonlari haqida,bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi „Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida”qarorida belgilangan masalalarda birinchi navbatda hududlarni to'g'ri joylashtirish masalasi ya'ni yerlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishining ahamiyatlari o'rganilgan.

Ma'lumki, respublika iqtisodiyotining barcha tarmoqlari yer fondidan ishlab chiqarish vositasi, xududiy asos va boshqa maqsadlar uchun foydalanadi. SHu sababli yer fondi toifalari maydonlari zaruriyatiga qarab tarmoqlar o'rtasida qayta taqsimlanadi. Demak, yer fondi toifalarining yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilar, yer mulkdorlari o'rtasida yoki turli hil yer turlari bo'yicha taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi - qonuniy jarayon hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, yerdan foydalanuvchilar o'rtasida (korxonalar, muassasalar,tashkilotlar yoki fuqarolar) yer aydonlarini taqsimlash va qayta taqsimlash deganda iqtisodiyot tarmoqlarining ob'ektiv talablaridan kelib chiqqan xolda davlat va jamoat extiyojlari uchun yerlarni byerish, ajratib olish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon yer fondining asosiy mulkdori sifatida davlat tomonidan qayd qilinadi va qishloq xo'jaligi masalalarini ustuvorligini hisobga olgan xolda davlatning ijroya etuvchi organlari tomonidan tartibga solinadi. SHu sababli, yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlash doimiy davlat nazorati ostida bo'ladi [1].

Yer uchastkalari belgilangan foydalanish maqsadlariga qarab yagona davlat yer fondiing ma'lum toifalariga biriktiriladi. Sanoat, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi talablar asosida ular uchun yer uchastkalarini doimiy ravishda

ajratib turilishini talab qiladi. Respublika yagona yer fondida chegaralanganligi sababli, tabiiyki ularni taqsimlash va qayta taqsimlash doimiy ravishda amalga oshirilib turiladi.

SHuni alohida e'tirof etish kyerakki, o'tkazilayotgan agrar islohotlar natijasida mavjud qishloq xo'jalik korxonalari qayta tashkil etilib, ular negizida fyermyer xo'jaliklari tuzildi. Buning uchun avvalo yerlarni majmualiy inventarizatsiyalash ishlari, sifatini o'rganish va boshqa katta xajmlardagi qidiruv ishlari o'tkazildi. Qayta tashkil etilgan korxonalarining yerlari sifati, yer va suvdan foydalanishning holati, muxandislik uskunalarining joylashishi, maydonlari, aholini joylashtirish va boshqa masalalar o'rganilib chiqildi. SHular asosida yangidan tuzilayotgan fyermyer xo'jaliklari o'rtasida yerlarni qayta taqsimlash bo'yicha loyihaviy takliflar ishlab chiqildi.

YAgona davlat fondi yerlarni taqsimlash funksiyasi-yerdan foydalanishni boshqarish tizimida muhim ahamiyatga ega, chunki u nisbatan uzoq muddatga yer resurslardan foydalanishni davlat siyosatini belgilaydi. U oldingi funksiyalar matyeriallariga asoslanadi hamda amaliy jihatdan jamiyat faoliyatining turli sohalarini, iqtisodiyot tarmoqlarini, yerdan foydalanuvchilarni yer resurslariga bo'lgan talablarini aniqlaydi. Yerdan foydalanish tarkibini maqbullashtirish, yerdan foydalanish va qayta tiklash bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarni iqtisodiy asoslash amalga oshiriladi.

Hozirda dolzarb vazifalardan biri bo'lgan Prezidentimizning 2017-yil 8-avgustda qabul qilingan „Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida“ qarorida hududni iqtisodiy rivojlantirish, ularning tabiiy, iqtisodiy va inson salohiyatidan samarali foydalanish, qurilishi tugallanmagan obektlardan, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish va yer maydonlaridan oqilona foydalanish, mahalliy byudjetlarning daromad qismi va hududning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, joylarda zamonaviy bozor infratuzilmasini tashkil etish, xizmat ko'rsatish, turizm sohalarini rivojlantirish, tadbirkorlik subektlariga amaliy yordam ko'rsatish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan [2]. Buning uchun avvalambor hududlarni faoliyat turiga qarab optimal variantda joylashtirish talab qilinadi. Yerlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi hududlarning ham rivojlantirishning bosh omillaridan biri hisoblanadi.

Qayta tashkil etilayotgan fyermyer xo'jaliklarining yer fondini qayta taqsimlashda quyidagilar e'tiborga olindi:

- yer fondining mavjud holati;
- bosh rejalar yoki davlat dasturlarida ko'zda tutilgan aholi punktlarini, dehqon xo'jaliklarini, irrigatsiya-melioratsiya, yo'l tarmoqlarini, boshqa muxandislik tarmoqlarini va kommunikatsiyalarini, qurilish ob'ektlarini rivojlantirish istiqbollari ta'minlovchi yer maydonlariga bo'lgan talab;
- amaldagi cheklovlar va syervitutlar;
- fyermyer xo'jaliklarining mavjud yerlari;
- qishloq xo'jalik ekinlarining mavjud maydonlari;
- yerlarni birlashtirish va foydalanishning boshqa shartlari.

Aholi punktlarining maydoni aholi punktlarini loyihalash va qurish uchun tuzilgan loyixalarni hisobga olgan xolda aniqlanadi. Ular bo'lmagan taqdirda istiqbolga aholi punktlarining chegaralari yerlarning mavjud foydalanilishi va istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan xolda aniqlandi. Aholi yashash punktlarini kengaytirish uchun zarur bo'lgan maydonlar kelgusida insonlar sonini o'sishini hisobga olib aniqlanadi.

Istiqbolga aholi punktlarining chegaralari tuman arxitektori ishtirokida belgilangan tartibda aniqlanadi. Bunda alohida qimmatga ega bo'lgan yerlarni hisob qilish matyeriallari, qurilish ob'ektlari o'rtasidagi sanitariya va boshqa ximoya mintaqalari hisobga olinadi.

Qayd etilganidek, yagona yer fondini taqsimlash va qayta taqsimlash doimiy jarayon.

Iqtisodiyot tarmoqlarini, shuningdek jamiyat faoliyatining boshqa sohalarini (ijtimoiy, rekreatsion va boshq.) Yer resurslariga bo'lgan talabini zahira yerlar hisobiga ta'minlash

maqsadga muvofiqdir. Ammo bunga har doim ham yerishib bo'lmaydi, ayniqsa shahar atrof mintaqalarida bu murakkab masala. Ko'pincha aholi punktlari maydonlarining o'sishi qishloq xo'jalik yerlaridan, shu jumladan yuqori qimmatli sug'oriladigan maydonlardan ularga yer ajratish hisobiga ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi "Davyergeodezkadastr" qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra qishloq xo'jalik maqsadlari uchun sug'oriladigan maydonlardan yer ajratishning o'rtacha o'lchami 300-500 gektarni tashkil etadi, bu iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas [MX]. Ushbu yerlarning o'rnini qoplash, o'z navbatida yirik harajatlar evaziga qishloq xo'jaligiga kam yaroqli yangi yerlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lib ko'pincha bu yerlarning ajratilgan yerlarga nisbatan bonitet balli past.

SHunday qilib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishning bosh omillaridan biri hisoblangan xolda yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy tarzda qishloq hududlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi hamda mamlakat iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning ham bosh omillaridan biri sanaladi. Yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlashda yerlarni kompleks baholab, aholining o'sish suratlarini, faoliyat turini hamda qimmatli va alohida muhofaza qilinadigan yer turlarini maksimal darajada hisobga olish zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi.-T.: Adolat, 1998
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi „Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida”qarori.
- 3.O'zbekiston Respublikasi "Davgeodezkadastr" qo'mitasining milliy hisobotlari.

**Ilmiy raxbar:**

**A.Muqumov**